

<https://doi.org/10.5281/zenodo.7876991>

Xasanova Nodira Sarinbek qizi

Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti Sharq filologiyasi fakulteti

Adabiyotshunoslik:yapon adabiyoti magistranti

Tel:+998990096962 rahipoverlan@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada XVII asr yapon she'riyatining yorqin namoyondasi, mumtoz haikai she'riy janrining asoschisi hisoblangan Matsuo Bashyo hayoti va ijodiga bag'ishlangan. Shoirning tug'ilganidan tortib to vafot sanasigacha qay tarzda hayot kechirgani yilma-yil ko'rsatib o'tilgan. Mazkur maqola orqali mutolaachi shoir hayoti va ijodi haqida kengroq va aniqroq ma'lumotga ega bo'lishi mumkin.

Kalit so'zlar: Matsunaga Teytoku, haikai, Sugyama Sanpu(1647-1732), Mukai Kyoray, Shida Yaba (1663-1740), Xattori Rensetsu (1654-1707), Morikava Kyoriku(1661-1707), Naito Jyoshyo (1662-1704), Kagami Shiko va Tachibana Xokushi, "Teymon", "Danrin", "Asl"

Haikai she'riyatining eng gullab yashnagan davri Matsunaga Teytokudan so'ng birinchi bo'lib o'zining shaxsiy, she'riyatda mavjud barcha uslublarda farq qiluvchi o'ziga xos uslubni yarata olgan Matsuo Bashyo ijodi bilan bog'liq. Matsuo Bashyo haikai janri rivojida juda katta ahamiyatga ega shoir hisoblanib, uni Italayadagi buyuk shoir Petrarka bilan taqqoslashadi. Shu o'rinda aytib o'tish joizki, haikai bu - yapon she'riyatining bir turi hisoblanib, XVI asrda mustaqil janr sifatida paydo bo'lgan. Mazkur she'riy tizimga berilgan ta'riflar juda ko'p bo'lib, bu ta'riflar rang-barang bo'lsa-da, mazmunan bir xil fikrni tarannum etadi. Haikai *qisqaligi va go'zalligi bilan o'ziga xosdir*. Mazkur she'riy janrning o'ziga xos yozilish uslubi va qoidasining mavjudligi, tanka singari asoslari 5,7,5, ya'ni jami 17 ta bo'g'indan iborat bo'lishi, boshqa she'riy janrlardan farqli ravishda haikaida mavsumiy so'zlarni ishlatilishi, lahzada olingan taassurotni qisqa misralarda ifoda etilishi, ommabop xalq tilida bitilishi, hazil-mutoyiba hamda parodiyaning mavjudligi haikaining o'ziga xos xususiyatlarini ifodalaydi. Bashyo bilan bir yo'nalishda ijod qilgan shoirlar ko'pchilikni tashkil qilgan bo'lsa-da faqat Bashyogina haikaini yuksak san'at darajasiga olib chiqqanligi bundan oldingi bobda qayd qilingan edi. Haikaining so'z o'yinidan shoirning ko'ngildagi nozik his-tuyg'ulari hamda o'y-hayollarini ifodalovchi vositaga aylanishi aynan uninggina ijodida yuz berdi. Shoir Matsuo Bashyo 1644 yilda Iga provinsiyasida joylashgan Ueno shahrida tavallud topdi. Uning otasi Matsuo Yozaemon samuraylardan bo'lib, xattotlikdan saboq berar edi. Bashyo ("Banan daraxti") tahallusi bilan shuhrat qozongan mazkur shoirning asl ismi Matsuo Junichirodir. Zamondoshlari orasida Matsuo, birinchi navbatda, renga ustasi sifatida shuhrat qozondi. Bashyoning she'riy

merosi o'zi va uning shogirdlari tomonidan yaratilgan 7 ta antologiya bilan ifodalandi: "Qish kunlari" (1684), "Yoz kunlari" (1686), "Xarobaga aylangan dala" (1689), "Qovoq-g'urrak" (1690), "Maymunning malla plashi" (1-kitob, 1691, 2-kitob, 1698), "Ko'mir xalta" (1694), she'rlar bilan biriktirilgan nasr bilan yozilgan lirik kundaliklar (ulardan mashhurroq bo'lganlari — "Shimol so'qmoqlari bo'ylab"), shuningdek kitob va she'rlarga muqaddimalar, san'at haqidagi fikr va g'oyalari va she'riy ijodkorlik jarayoniga qarashlari bilan o'rtoqlashgan xatlari shular jumlasidandir. Bashyo she'riyati va estetikasi o'rta asrlar va Hozirgi Zamon yapon adabiyoti rivojiga katta ta'sir ko'rsatdi. Yoshligida Du Fu kabi xitoy shoirlari bilan qiziqdi. O'sha paytlarda kitoblar o'rta xoldagi zodagonlarning ham qo'li yetadigan sharoitda edi.



Bashyo xushbichim, nafis yuzli, mo'ylovi qalin va burni turtib chiqqan, bo'yi uncha baland bo'lmagan qaddi-qomati kelishgan inson bo'lgan deb qaraladi. Buddistlarda qabul qilingani kabi u boshini qirtishlab yurgan bo'lsa-da, rohiblikka davo qilmagan. Uning sog'lig'i zaif bo'lib, butun hayoti davomida me'da buzilishidan qiynalgan. Shoirning yozma xatlaridan taxmin qilish mumkinki, u xotirjam, xolis, g'amxo'r, saxiy va qarindoshlari va do'stlari bilan bo'lgan munosabatlarida vafodor inson bo'lgan. Shunga qaramasdan, shoir butun hayoti davomida qashshoqlikdan qiynalgan, lekin haqiqiy faylasuf-buddiy sifatida, bu holatga deyarli ahamiyat bermagan, ya'ni zarur nonni qidirib sayyor yurgan oddiy kambag'alga o'xshashligi uni ko'p ham qiziqtirmas edi. U yolg'iz sayohat qilar, ba'zida esa bir yoki ikkita eng yaqin shogirdlari bilan ham mazmunli safarlar uyushtirib turgan. Shoir shogirdlarining soni yetarli darajada edi. Bashyoning sayohati uning uslubining tarqalishiga xizmat qildi, chunki hamma joyda shoir va zodagonlar uni o'z uyiga mehmonga taklif etar edilar. Bashyoning nozik sog'ligi uning izdoshlari va shogirdlarini tashvishga solar edi va ular ustozining uyiga qaytganida yengil nafas olar edilar. Bashyo ijodiy faoliyatining ilk pallalarida "Qadimgi" maktab uslubidagi she'rlarni bitadi, ya'ni yapon va xitoy mumtoz adabiyotining an'alariga tayanadi. U tanka she'riyatiga ham murojaat qilgan va shu orqali qaysidir darajada o'sha davrning urfda bo'lgan she'riy qonun-qoidalariga bo'ysundi. Bizgacha yetib kelgan shoirning ilk nashr ettirilgan she'rlari 1662 yilga tegishli va aynan "Qadimgi" maktab ruhida yaratilgan edi. Shoir aynan o'sha yilda

Sobo yoki Munefusa tahallusini oladi va ushbu tahallus bilan "Sayodagi Nakayama tog'i" ("Sayo no nakayamashyu") to'plamida ikkita she'rini e'lon qiladi. Ikkala haikaida ham "Qadimgi" maktab uslubi yaqqol sezilib turar edi. Bashyo 23 yoshga to'lganida yaqin do'stlaridan biri to'satdan vafot etadi. Bundan qattiq aziyat chekkan shoir, tug'ilib o'sgan joylarini tark etishga va poytaxt Kiotoga yo'l olishga ahd qiladi. Kiotoda Bashyo Kitamura Kigin boshchiligidagi shoirlar guruhiga qo'shiladi. Kiginning rahnamoligida yapon mumtoz adabiyotidan saboq oladi, renga va haikai she'rlarini bitishga harakat qiladi. Bunda u mumtoz adabiyot vakillari singari xitoy adabiyotiga murojaat qiladi. Bashyoga mazkur sohada Ito Tan'an ustozlik qilgan edi. Bashyo ayniqsa Li Bo (705-762), Du Fu (712-770) va Bo Tsui (772-846) kabi xitoy shoirlari ijodining ashaddiy muxlisi edi. 1672 yilda Bashyo syogun saroyi joylashgan Edoga (hozirgi Tokio hududi) yo'l oladi. Tez orada shoirning "Qadimgi" maktab uslubidan uzoqlashishi kuzatila boshlandi. Uni "Danrin" maktabining novatorlikka oid intilishlari jalb qildi, mazkur maktabning poetik yangiliklari, erkin uslubi, dadilligi o'ziga tortdi. Bashyo she'riyat hayot hodisalarini keng va erkin ifoda etishini, uning obrazlilikining yorqin bo'lishi va cheklanmasligini xohladi. Shoirning bu qarashlari "Chig'anoq o'yini" ("Kayoi", 1672) deb nomlangan ilk tanqidiy asarida o'z aksini topdi. Asar Bashyoning izohlari bilan keltirilgan 60 ta haikaidan tashkil topgan bo'lib, she'rlardan ikkitasigina shoir qalamiga mansub hisoblangan hamda qolgan haikailar Uenolik 36 ta shoir tomonidan bitilgan edi. Ushbu she'rlar badiyat jihatidan ajralib turmasdan, asosan oddiy mavzularda, yengil ohangda va vulgar materiallar asosida yaratilgan edi. Bashyo kutilmagan, noodatiy mavzudagi va shu mavzuga mos obrazlarni mujassamlashtirgan she'rlarni afzal ko'rdi. Shu bilan birgalikda, uning o'zi tanqidiy asarlarida xazil-mutoyiba she'rlarida oddiy xalq iboralarini qo'llar edi. Bashyo tez orada haikai ustasi sifatida ustoz maqomiga erisha boshladi. Keyinchalik asta-sekinlik bilan "Asl" (Shyofu) nomi bilan shuhrat qozongan shoir maktabining asosini o'z shogirdlarining doiralari tashkil eta boshladi. Bashyo maktabining yuzaga kelishi taxminan 1677 yilga to'g'ri keladi. Bu maktab "O'n zakovat egalari" nomi bilan kirgan bir qator shoirlar guruhini yetishtirib chiqargan bo'lib, Sugyama Sanpu (1647-1732), Mukai Kyoray, Shida Yaba (1663-1740), Xattori Rensetsu (1654-1707), Morikava Kyoriku (1661-1707), Naito Jyoshyo (1662-1704), Kagami Shiko va Tachibana Xokushi kabi shoirlar shular jumlasidandir. Ular o'z ijodlari bilan Bashyo she'riyati qonun-qoidalarini butun mamlakat bo'ylab yoyilishiga katta hissa qo'shganlar. 1676 yilda shoir Yamaguchi Sodo (1642-1716) bilan birgalikda Bashyo "Edolik ikki shoirning to'plami" ("Edo ryoginshyu") deb nomlangan she'rlar to'plamini nashr ettirdi.

1677 yilda poytaxt Kiotoda yirik haikai she'riyat bellashuvi tashkil etiladi va unda Bashyo Tosei ("Yashil shaftoli") tahallusi ostida 20 ta she'ri bilan ishtirok etadi. Ushbu mushoira kechasida Bashyo bundan avvalgi bobning ikkinchi faslida tilga olingan shoirlar: Ito Shintoku, Shinamoto Saymaro (1656-1739) va Ikenishi Gonsui kabi "Danrin" maktabi vakillari bilan tanishadi. Bashyoning shoir Sodo va Shintoku bilan bo'lgan do'stliklari yuz misralik renga she'rlarini yaratish bilan yanada

mustahkamlandi. 1678 yilda ular hamkorligida ushbu yuz misrali renga “Edolik uch shoirning she’rlari”(“Edo sangin”) nomi ostida alohida kitob shaklida nashr ettirildi. Huddi shu yilda shoir “O’n sakkiz juftlik haikai bellashuvi” (“Jyu hachiban hokku avase”) nomli to’plamga tanqidiy izohlar yozdi. Mazkur asar Bashyoning “Danrin” maktabiga nisbatan o’z munosabatining o’zgarishini namoyon etdi. O’tkir so’zlik, grotesk shoirni endilikda qiziqitirmay qo’ydi. U oddiy ammo jiddiy manzara tasvirlarini she’rda tasvirlay boshladi. Shunday bo’lishiga qaramasdan, shoirning keyingi ijodiy faoliyatda ushbu maktab uslubining nafasi sezilishda davom etdi. 1680 yilda Bashyo ikki hil tanqidiy asar yaratdi. Ulardan biri “Qishloq bellashuvi”(“Inaka no kuavase”) bo’lib, bu asar o’zida Enomoto Kikaku tomonidan bitilgan 25 ta uchlikni o’zida mujassamlashtirdi. Ikkinchi asar “Doim yashil bellashuv”(“Tokivaya no kuavase”) nomli sarlavha bilan shoir Sugiyama Sanpu tomonidan yaratilgan 25 ta uchlikdan tashkil topgan holda yaratildi. Mazkur davrga tegishli bashyoning tanqidiy asarlarida yapon va xitoy manbalari, ayniqsa, “Chuantsi”dan g’oya va atamalarni keng ko’lamda o’zlashtirish tendensiyalari kuzatiladi. 1682 yil 28 dekabr sanasida Edo shahrida katta yong’in ro’y beradi va Bashyoning kulbasi yang’inda vayron bo’ladi. Sugiyama Shinpun opasining Kai provinsiyasidagi uyidan panoh topgan shoir 1683 yilda Edoga qaytadi. O’sha yilning o’zida shoir kulbasi tiklanib, yangi banan daraxti o’rnatiladi va shoir yana xotirjamlikda osoyishda hayot kechira boshladi. 1684 yildan boshlab Bashyo hayotida sayohatlar davri boshlandi. Shoir o’n yil davomida Yaponiya bo’ylab sayohat qiladi, darbadarlikda kun kechirishni boshlaydi. Shunday bo’lsa-da aynan shu sayohatlari shoirning qarashlarini o’zgarishiga sababchi bo’ladi. Sayohatlari davomida o’z she’rlarida oddiy odamlar kechinmalarini aks ettirdi, ulardagi haqiqiy go’zallikni ko’ra oladigan qalblarni ochib berishni uddalay oldi. Bashyo sayohatlari mahsuli sifatida beshta lirik kundalik yaratgan bo’lib, ularda nasr nazm bilan uyg’unlashadi. “Dalada oqarib ko’rinayotgan suyaklar” (“Nozarashi kiko”, 1698) kundaligi ilk sayohatlarning taassurotlarini aks ettirgan. 1698 yilda nashr ettirilgan mazkur kundalik xitoy adabiyoti va falsafasining Bashyo ijodiga ko’rsatgan katta ta’siridan dalolat beradi. Bashyo qarashlarining haikai she’rlarida aks etishida 1684 yildagi sayohati muhim ro’l o’ynadi. Shoir Uenodagi do’stlari bilan aloqalarini tiklab, o’z izdoshlari doirasini kengaytirdi. Bir vaqtning o’zida shoir adabiy tanqid bilan ham shug’ullanishda davom etdi. Ijodkorning sayohat yillarida yaratilgan eng muhim asarlaridan biri “Yangi yil renkulari haqida tanqidiy qaydlar” (“Xasukayshi xyochyo”) nomi bilan mashhur bo’lgan renku to’plami sharhlari hisoblanadi. Ushbu asarda Bashyo ilk bora assosiativ tagma’noning mavjudligi va fikrlarning oxirgacha ifodalanmasligi kabi haikaining o’ziga xos jihatlari haqida gapiradi. Bashyo keyinchalik ham o’z maktabi she’riy to’plamlarini tanqidiy maqolalar bilan nashr ettirib bordi va mushoiralarda ko’p marotaba hakam sifatida ishtirok etdi. Shoirning tanqidiy asarlari uning ijodiy izlanishlaridagi jarayonlarni o’zida aks ettiradi. 1678-1691 yillar Bashyo maktabi – “Asl”(“Shyofu”)ning yuzaga kelishi va haikaining yuksak she’riyat janriga aylanishi bilan bog’liq. Ham yapon, ham xitoy estetik va poetik tafakkuri yutuqlarini qayta

anglash shiori ostida kechgan ushbu yillar ahamiyati jihatidan shoir ijodidagi muhim davr hisoblanadi. O'tmish tajribalarini qayta ijodiy ishlab chiqar ekan, Bashyo haikai she'riyatini mazmun va badiiy tasviriy vositalar nuqtai nazaridan ham yangilaydi. Ushbu davrning o'zini ikki bosqichga ajratish maqsadga muvofiqdir: 1684 yilgacha bo'lgan "tayyorgarlik ko'rish" davri - "Kuzgi tun" she'rining yaratilishi bilan belgilansa, ikkinchisi "Eski hovuz" she'ri bilan ifodalanadigan "asosiy" davr bilan ifodalanadi. 1691-1694 yillar kundalik hayotni shoirona tasvirlash to'g'risidagi ta'limotni ishlab chiqish negizida haikai she'riyati keyingi rivojining yangi yo'llarini izlab topish bilan belgilanadi. Bashyoning novatorligi Danrin maktabi vakillari intilganidek, qonun-qoidalardan voz kechishga emas, balki an'analarga qaytishga asoslanadi. An'analarni chuqur anglab etish orqaligina she'riyat usullarini haqiqatdan xohlagancha yangilash mumkin deb o'ylagan holda Bashyo o'tmishning buyuk yapon, xitoy shoirlari ijodiga murojaat qildi. Bashyo haikai she'riyatini o'z-o'zini anglash, haqiqatga yetish, tabiat va insonning hamohang ravishda birlashish vositasi deb bilar edi. Bashyoning fikricha, shoir uchun eng muhim narsa - haqiqiy his etishga erishishdir. Bashyo birinchi bo'lib "Haikai haqiqati" ("Haikai no makoto) haqida so'z ochdi: "Haqiqat ko'rayotgan narsangda. Eshitayotgan narsangda. Shoir tomonidan his qilingan tuyg'u she'rga aylanadi - aynan mana shundadir haikai she'riyatining haqiqati (makoto)". Haikai she'riyatiga oid tasavvurlar birinchi navbatda asosan Bashyo bilan bog'liq bo'lib, shoir mazkur janrning poetikasi hamda estetikasini ishlab chiqdi va o'zidan yapon she'riyatida boy meros qoldirdi. Ta'sirchanlikni kuchaytirish uchun ikkinchi she'rdan keyin takrorlanib keluvchi pauzani kiritdi, qisqa she'r haikaining uch asosiy estetik prinsipi - nafis soddalik (sabi), go'zallik va nafosat uyg'unlini assosiativ anglash (shiori) va samimiylukning teranligi (xosomi) ni taklif qildi. Zen-buddaviyligi dunyoqarashi va an'anaviy estetika bilan qiziqish shoirni xaykudagi fikrlarning oxirigacha to'liq ifodalanmaslik prinsipini takomillashtirishiga turtki bo'ldi. Shoir minimal til vositalari yordamida kitobxonning tasavvuriga impulslarni yo'naltirgan va unga she'rning ohangi, obrazlarning kutilmagan birikmalari, mustaqil ravishda predmet mohiyatiga bir lahzada etish (satori) imkoniyatini bergan holda mavzu obyektining o'ziga xos jihatlarini ajratib ko'rsatadi. Bashyo hayotligidayoq o'z davrining eng yetuk shoiri deb tan olindi va o'z hayotining oxirigacha tabiat go'zalliklaridan kuch to'plab sayohat qildi. Uning izdoshlari uning ortidan olomon bo'lib yurardilar, hamma yerda uni qadrllovchi kishilar — dehqon va samuraylar kutib olar edilar. Uning sayohatlari va uning zakovati Yaponiyada juda ommabop bo'lgan yana bir she'riy janr — X asrda yuzaga kelgan yo'l kundaliklari janriga yangi ravnaq berdi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Маркова В. Японские трехстишия. «Художественная литература». – М., 1973

2. Кин Д. японская литература XVII-XIX столетий. «Наука». – М.,1978
3. Кондрашева Е.В. Японская литература: путь в полторы тысячи лет. – Хабаровск., 2017
4. Конрад Н.И. Японская литература: От «Кодзики» до Токутоми, «Наука». – М., 1974
5. <https://ci.nii.ac.jp>
6. <https://www.aozora.gr.jp>
7. www.google.uz